

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/01.04.2023.T.90.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**G‘ULAMIDDINOV SARVARJON G‘AYRATJONOVICH**

**FIBROBETONDAN TAYYORLANGAN SIQILUVCHI TEMIR BETON  
ELEMENTLARNING DEFORMATSIYALANUVCHANLIGI,  
DARZBARDOSHLIGI VA MUSTAHKAMLIGI**

**05.09.01- Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan– 2025**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferatining mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)  
on technical sciences**

**G‘ulamiddinov Sarvarjon G‘ayratjonovich**

Fibrobetondan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligi..... 5

**Gulamiddinov Sarvarjon G‘ayratjonovich**

Деформативность, трещиностойкость и прочность сжатых железобетонных элементов из фибробетона..... 21

**Gulamiddinov Sarvarjon Gayratjonovich**

Deformability, crack resistance and strength of compressible reinforced concrete elements made of fiber concrete..... 39

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....

46

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/01.04.2023.T.90.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

**G‘ULAMIDDINOV SARVARJON G‘AYRATJONOVICH**

**FIBROBETONDAN TAYYORLANGAN SIQILUVCHI TEMIR BETON  
ELEMENTLARNING DEFORMATSIYALANUVCHANLIGI,  
DARZBARDOSHLIGI VA MUSTAHKAMLIGI**

**05.09.01- Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar**

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Namangan– 2025**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/T4012 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Namangan davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)), Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namdtu.uz](http://www.namdtu.uz)) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xolmirzayev Sattar Abdujabbarovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Zulpuyev Abdivap Momunovich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Abdullaev Ibroxim Numanovich**  
texnika fanlari nomzodi, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Namangan "Kommunalta'mirloyiha" MCHJ.**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/01.04.2023.T.90.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil «12» noyabr soat 11<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Uychi tumani, Oqtosh MFY, Temurmaliq ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99869) 484-12-51; faks: (99869) 481 13 59, e-mail: [namdtu\\_info@edu.uz](mailto:namdtu_info@edu.uz).)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 75-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Namangan sh. I.Karimov ko'chasi 12-uy. Tel.: (99869) 234-15-23; faks: (99869) 234-14-30, e-mail: [namdtu\\_info@edu.uz](mailto:namdtu_info@edu.uz).)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «29» oktyabr kuni tarqatildi.

(2025-yil «21» iyundagi 1/2025-2 raqamli reyestr bayonnomasi).



**V.R.Xodjibayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**X.L.Alimov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, texnika fanlari nomzodi, dotsent

**R.X. Soliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori,  
professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda qurilish sanoatining jadal rivojlanishi energiyatejamkor, ekologik sof va yuqori mustahkamlikka ega qurilish konstruksiyalariga bo'lgan talabni keskin ortishi sababli, beton va temir beton konstruksiyalarni mustahkamligini oshirish masalasi yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida yiliga 3 milliard kubometrdan ortiq beton va temir beton konstruksiyalardan foydalaniladi. Shuning uchun temir beton konstruksiyalarni dispers armaturalash yordamida ularning mustahkamligi va uzoq muddatga chidamliligini oshirish hamda olingan natijalarni amaliyotga joriy qilishni taqozo etadi. Shu jihatdan temir beton konstruksiyalarni ishlab chiqarishda energiya-resurstejamkor usullardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda fibrobeton hamda fibrotemirbeton konstruksiyalarni ishlab chiqarish bilan, bino va inshootlarning mustahkamligini hamda ishonchliligini ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada bajarilgan ilmiy tadqiqotlar asosan egiluvchi temir beton elementlarni bazalt tolalari asosida dispers armaturalash yordamida tayyorlangan fibrobeton va fibrotemirbeton konstruksiyalarni mustahkamlik va deformatsiyalanuvchanlik xossalarini yaxshilash, ularning darzbardoshligini oshirish, egiluvchi elementlar solqiligini kamaytirish masalalariga e'tibor qaratilib, ma'lum yutuqlarga erishilgan. Bazalt tolalari asosida dispers armaturalangan fibrobetondan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligini o'rganish sohasida ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Fibrobeton qo'llanilishining dastlabki davrlarida asosan po'lat tolalari bilan dispers armaturalashga asosiy e'tibor qaratilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan temir beton konstruksiyalarning mustahkamlik-deformatsiyalanuvchanlik xossalarini o'rganish mavzusidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni qo'llagan holda bino va inshootlar hamda ularda qo'llaniladigan konstruksiyalarning mustahkamligi va ishonchliligini ta'minlash, xom-ashyo resurslaridan samarali foydalanish, mahalliy materiallarni ishlab chiqarishda qo'llash imkonini beruvchi yangi qurilish materiallari va konstruksiyalarini tayyorlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "OTMlarda arxitektura-qurilish sohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish", "Yangi yaratilgan va amaliyotga joriy qilingan qurilish materiallari bo'yicha normativ hujjatlarni ishlab chiqish"<sup>1</sup>, bundan tashqari,

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risidagi” Farmonida ko‘rsatilgan “Mahalliy xom ashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, Jizzax viloyatining Forish tumanida joylashgan “Bazalt Uzbekistan” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan bazalt tolalari asosida dispers armaturalangan fibrotemirbeton konstruktsiyalarni ishlab chiqarish, binolarning temir beton konstruktsiyalarida qo‘llaniladigan fibrotemirbeton konstruktsiyalarni kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini o‘rganish, shuningdek konstruktsiyalarning mustahkamligi, bikrligi va darzbardoshligi bo‘yicha hisoblash usullarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 17 apreldagi PQ-161-sonli “Bino va inshootlarning zilzilabardoshligini oshirish hamda seysmik xavfni monitoring qilish faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorda ko‘zda tutilgan “Yangi qurilish materiallarini sinash, ularning xossalarini o‘rganish va qo‘llash sohasini aniqlash, turli fibrobeton va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan qurilish konstruktsiyalarini sinovdan o‘tkazish hamda ilmiy asoslangan tavsiyanomalar ishlab chiqish” hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy va huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishiga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. «Energetika, energiya va resurs tejamkorlik» ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bazalt tolalar asosidagi fibrobetondan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligini tadqiq qilish muammolari bilan jahondagi yirik tadqiqotchilar jumladan: K.L.Kudyakov, Z.M.Yasmin, M.A.Haneen, P.P.Nihal, Sh.Shinu, J.Krassowska, A.Lapko, Li Shiping, Yibei Zhang, Wujun Chen, M. Aathithya Raja, G. Saravanan, V.S Satheesh va boshqalar ilmiy tadqiqotlar o‘tkazib, ushbu yo‘nalishni rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shganlar.

O‘zbekiston Respublikasida temir beton konstruktsiyalari sohasidagi yetakchi olimlar, jumladan: H.A.Akramov, B.A.Asqarov, A.A.Ashrabov, A.B.Ashrabov, Ch.R.Raupov, S.S.Shaumarov, Sh.Shojalilov, Sh.R.Nizomov, S.J.Razzakov, V.F.Usmonov, P.T.Mirzayev, A.A.Xodjayev, S.A.Xolmirzayev, B.Sh.Rizayev va boshqalar egiluvchi va siqiluvchi temir beton elementlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanuvchanlik, mustahkamlik va darzbardoshligini tadqiq qilish bo‘yicha bir qator tadqiqotlar olib borib, turli yillarda o‘z tadqiqotlari asosida muhim ilmiy va amaliy natijalarga erishganlar.

O‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bazalt tolalari asosida dispers armaturalangan fibrotemirbeton konstruktsiyalarni siqiluvchi temir beton konstruktsiyalarda qo‘llanilishi yetarli darajada o‘rganilmaganligi sababli, mazkur

sohada ilmiy tadqiqot ishlari olib borish zarur.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti, Namangan davlat texnika universiteti "Bino va inshootlar qurilishi" kafedrasining "O'zbekiston sharoitida kompozit va dispers armaturali beton va fibrobetonni tadqiq qilish va egiluvchi beton va fibrobeton konstruksiyasini modellashtirish sinash, hamda uzoq muddatga chidamliligini aniqlash (2022-2026yy.)" mavzusida bajarilgan amaliy loyiha doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** fibrobeton dan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligini tadqiq etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

eksperimental tadqiqotlar yordamida bazalt tolalari asosida dispers armaturalangan siqiluvchi fibrotemirbeton ustunlarning kuchlanganlik deformatsiyalanuvchanlik holatini tadqiq qilish, ularni oddiy temir betondan tayyorlangan ustunlarning kuchlanganlik-deformatsiyalanuvchanlik holati bilan taqqoslash, natijalarni tahlil qilish va xulosalar olish;

turli ekstsentrisitetlar bilan yuklangan siqiluvchi fibrotemirbeton ustunlarning darzbardoshligini aniqlash, ularni oddiy temir beton ustunlarning darzbardoshligi bilan taqqoslash, natijalarni tahlil qilish va xulosalar olish;

eksperimental tadqiqotlar yordamida uch xil ekstsentrisitet ( $e_0=0,2h_0$ ,  $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) bilan yuklangan fibrotemirbeton ustunlarning yuk ko'tarish qobiliyatini aniqlash va oddiy temir beton ustunlarning yuk ko'tarish qobiliyati bilan solishtirib, natijalarni tahlil qilish;

eksperimental tadqiqotlar yordamida ikki xil katta ekstsentrisitetlar ( $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) bilan yuklangan fibrotemirbeton ustunlardagi darzlarning ochilish enini aniqlash va uning nazariy qiymatlari bilan solishtirib, hisoblash formulalarini takomillashtirish;

eksperimental tadqiqotlar yordamida katta ekstsentrisitetlar bilan yuklangan fibrotemirbeton ustunlarning solqiliklarini aniqlash, ularning qiymatlarini oddiy temir beton ustunlarning solqiliklari bilan taqqoslash va natijalarni tahlil qilish;

oddiy temir beton va fibrotemirbeton ustunlarni ANSYS Workbench kompyuter dasturi yordamida virtual modellashtirish, shuningdek ularning mustahkamlik va deformatsiyalanuvchanlik xossalarini aniqlash, olingan natijalarni o'zaro taqqoslash hamda kuchlanganlik-deformatsiyalanuvchanlik holatlarini tahlil qilish;

dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlarni qo'llanilishining iqtisodiy samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning ob'yekti** sifatida bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlar olingan.

**Tadqiqotning predmetini** bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan siqiluvchi fibrotemirbeton ustunlarning mustahkamligi, deformatsiyalanuvchanligi va darzbardoshligi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlarni statik yuklamalar ta'siriga sinash,

chegaraviy holatlar usuli bo'yicha hisoblash, tajriba-sinov natijalarini tahlil qilish hamda taqqoslash usullari qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

eksperimental tadqiqotlar natijasida bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonlarning prizmatik mustahkamligi koeffitsienti og'ir betonnikidan farqli bo'lib, uning qiymati  $R_b/R = 0,82$  qabul qilinishi kerakligi asoslangan;

bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning deformatsiya moduli og'ir betonnikidan 30% yuqori ekanligini hisobga olgan holda uni aniqlash formulasi takomillashtirilgan;

eksperimental tadqiqotlar yordamida kichik ekstsentrisitetlar bilan yuklangan ( $e_0=0,2h_0$ ) bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlarning mustahkamligi og'ir betonnikiga nisbatan 40-45%, katta ekstsentrisitetlar ( $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) bilan yuklangan ustunlarning mustahkamligi esa 30-35% ortishi aniqlangan;

bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlarni birinchi guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashda kichik ekstsentrisitetlar bilan ( $e_0=0,2h_0$ ) yuklangan ustunlardagi betonning prizmatik mustahkamligi ( $R_b$ ) tegishli ish sharoiti koeffitsiyenti  $\gamma_{b1}=1,4$ , katta ekstsentrisitetlar ( $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) bilan yuklangan ustunlarni prizmatik mustahkamligi esa  $\gamma_{b1}=1,3$  ga ko'paytirish yordamida aniqlanishi asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

eksperimental tadqiqotlar yordamida turli ekstsentrisitetlar bilan yuklangan siqiluvchi fibrotemirbeton ustunlarning darzbardoshligini aniqlangan;

eksperimental tadqiqotlar yordamida uch xil ekstsentrisitet bilan ( $e_0=0,2h_0$ ,  $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) yuklangan fibrotemirbeton ustunlarning yuk ko'tarish qobiliyati ortishi aniqlangan;

eksperimental tadqiqotlar yordamida ikki xil katta ekstsentrisitetlar ( $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) bilan yuklangan fibrotemirbeton ustunlarda darz hosil bo'lgandagi kuchlanishlar miqdorini aniqlash va darzlarning ochilish enini aniqlash formulalarini takomillashtirilgan;

fibrotemirbeton ustunlarni ANSYS Workbench kompyuter dasturi yordamida virtual modellashtirildi, shuningdek ularning mustahkamlik va deformatsiyalanuvchanlik xossalarini aniqlangan;

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Olingan tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqotlar zamonaviy uslub va vositalardan foydalangan holda bajarilganligi, nazariy hisoblar va tajribalarni qurilish me'yorlari va qoidalari asosida amalga oshirilganligi, tajriba va nazariy tadqiqot natijalari hamda hisoblashning kompyuter dasturi asosida olingan natijalarning o'zaro mutanosibliigi va amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlarning birinchi va ikkinchi guruh chegaraviy holatlar bo'yicha hisoblashni takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan siqiluvchi fibrotemirbeton ustunlarni ko'p qavatli binolarda

qo'llanilish imkoniyatlari asoslanganligi hamda uning iqtisodiy samaradorligi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** “Fibrobetondan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligi” mavzusi doirasida olingan ilmiy natijalar asosida:

siqiluvchi temir-beton elementlar ishlab chiqarish jarayonida bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetondan foydalanish texnologiyasi "Bunyodkor-3" MChJda amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 25-dekabrda №24-06/13800-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning siqilishga mustahkamligi an'anaviy, oddiy (dispers armaturalanmagan) betonga nisbatan 40–45% ga yuqori ekani aniqlangan. Bu ko'rsatkich yangi materialning yuk ko'tarish qobiliyati va konstruktiv ishonchligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida, o'q bo'ylab siqilish holatida bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy deformatsiya qiymatlari aniqlanib, ularning barqarorligi va deformatsiyalanishga qarshiligi yuqori ekani tasdiqlandi hamda siqilishdagi chegaraviy deformatsiyalar oddiy betonga qaraganda 15-20%, cho'zilishda esa 20-25% yuqori ekanligi aniqlangan;

bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan siqiluvchi fibrotemirbeton elementlarni mustahkamlikka hisoblash usuli “Farg'ona Rahmatjon topograf” xususiy korxonasi tomonidan Furqat tumani 32-sonli umumta'lim maktabi hududida joylashgan 330 o'ringa mo'ljallangan o'quv binosi va sport zalini loyihalash jarayonida amaliyotga joriy etildi. (O'zR Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 25-dekabrda №24-06/13800-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 15% gacha iqtisodiy tejamkorlikka erishilgan;

fibrobetondan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar asosida olingan ilmiy natijalar “O'zog'irsanoatloyiha” AJ tomonidan bino va inshootlarni loyihalash, qurilish jarayonlarida, rekonstruksiya qilish va ulardan foydalanishga joriy etilgan (O'zR Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 25-dekabrda №24-06/13800-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonda deformatsiyaning kuchlanish bilan bog'liqligi eksperimental sinov bilan aniqlangan hamda tajriba natijalariga ko'ra bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning o'rtacha zichligi 2000-2100 kg/m<sup>3</sup>ni tashkil qilganligi uchun, uning massai 15-20% ga kamayishi tufayli material sarfini tejash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan;

Fibrotemirbeton ustunlarni ANSYS Workbench dasturi yordamida modellashtirish, hisoblash ishlari va takomillashtirilgan formulalar hamda tajriba-sinov natijalariga asoslanib olib borildi. Ushbu tadqiqotlar va hisoblash uslublari Farg'ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi hududiy boshqarmasi tomonidan amaliy loyihalash va hisoblash ishlarida qo'llash uchun joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2024-yil 25-dekabrda №24-06/13800-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning deformatsiyalanuvchanligi nomarkaziy

siqilish sharoitida o‘rtacha 30% ga kamayganligi va boshlang‘ich elastiklik moduli esa o‘rtacha 30% ga ortganligi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatyasi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 13 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan, yuqori impakt faktorli xorijiy ilmiy jurnallarda 4 ta, OAK tavsiya etgan respublika jurnallarida 2 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 100 betni tashkil etadi.


## DISSERTATSIYANING MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsad va vazifalari hamda tadqiqot ob‘yektini va predmeti keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilganligi, ularning aprobatyasi va dissertatsiya mavzusiga oid chop etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mavzuni o‘rganilganlik holati va masalaning qo‘yilishi**” deb nomlangan birinchi bobida, mavzu bo‘yicha turli tadqiqotchilar tomonidan chop etilgan ilmiy ishlarning tahlili va ilmiy yangiliklarining sharhlari keltirilgan. Fibrobeton tartibli yoki tartibsiz taqsimlangan holda tsement massasi - matritsada tolalarni o‘z ichiga olgan kompozit materialdir. Fibrobetonning mustahkamlik ko‘rsatkichlari, shubhasiz, tola turi, uning geometriyasi, tolaning tarkibi, tolaning yo‘nalishi va taqsimlanishi, yirik va mayda to‘ldiruvchilarning shakli va o‘lchamlariga bog‘liq bo‘ladi. Fibrobeton bo‘yicha tadqiqotlarni rivojlanishiga Xitoy, Avstraliya, Germaniya, Kanada AQSh, Rossiya va boshqa rivojlangan mamlakatlarning olimlari salmoqli hissa qo‘shganlar. Tolalar bilan dispers armaturalashda beton massa-matritsasining xossalari kompozit tuzilishiga bog‘liq. Tolalar bilan dispers armaturalangan mayda toshli beton uchun tsement massa-matritsa boshqa odatiy mayda toshli betonlardan farq qilmaydi va u tsement, qum, to‘ldiruvchi va suvdan tarkib topadi. Fibrobetonda tolaning miqdori tsement massasiga yoki betonning hajmiga nisbatan qo‘shilishi mumkin. Tola va tsement toshining o‘zaro ta‘siri, shuningdek tola bilan armaturalangan materialning tuzilishi va kompozit materialning tavsiflariga ta‘sir qiluvchi muhim xususiyatlardir. Fibrobetonning yuk ko‘tarish qobiliyati beton matritsada tolaning hajmiy ulushiga bog‘liq bo‘ladi. Fibrobeton tsement matritsada taqsimlangan kalta tolalardan iborat bo‘ladi.

Dissertatsiyaning “**Fibrobetondan tayyorlangan siqiluvchi temir beton elementlarni sinash metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish dasturi, tajriba namunalarini tayyorlash, o‘tkaziladigan eksperimental tadqiqotlar uchun xom ashyo materiallari hamda ularning xossalari, fibrobeton tayyorlash uchun bazalt tolalarining asosiy ko‘rsatkichlari, tajribada qo‘llaniladigan B20 klassdagi betonning tarkibi, temir beton ustunlar tayyorlashda

qo‘llaniladigan armaturalarning xarakteristikalari, temir beton ustunlarni tayyorlash va ularni saqlash jarayoni, temir beton ustunlarni qisqa muddatli yuklamalarga sinash orqali ularning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligini aniqlash metodikasi yoritilgan.



**1-rasm. Namuna uchun tayyorlangan ustun karkasining ko‘rinishi**


Tadqiqot o‘tkazish obyekti sifatida ko‘ndalang kesim tomonlari  $160 \times 300$  mm, uzunligi 1000 mm bo‘lgan temir beton ustunlar qabul qilindi (1-rasm). Mazkur ustunlarni armaturalashda ishchi armatura sifatida diametri 14 mm bo‘lgan A-III klassdagi sterjen armaturalardan foydalanildi. Temir beton ustunlar uchun armaturabop karkaslarni tayyorlashdan oldin har bir partiyadagi armaturadan uzunligi 1000mm bo‘lgan 5 tadan sterjen tanlab olindi. Nazorat sterjenlari Uz.RST 30062-93.ga asosan cho‘zilishga sinaldi. Qoliplash vaqtida armaturaning loyihaviy holatini saqlash va betonning himoya qatlamini ta‘minlash maqsadida armaturabop karkasga plastmassadan tayyorlangan maxsus fiksatorlar mahkamlandi. Armaturadagi deformatsiyalarni o‘lchash uchun ularga diametri 12 mm bo‘lgan metall shtirlar payvandlandi. Ustunlarni qisqa muddatli yuklamalarda sinash uchun ularni qolipdan olingandan keyin 28 sutkagacha normal sharoitda saqlandi. Ustunlarning 12 tasi bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton, qolgan 6 tasi esa B20 klassdagi og‘ir betondan tayyorlandi. Tajriba namunalari 3 xil ekstsentrisitet bilan ( $0,2h_0$ ;  $0,5h_0$ ;  $0,8h_0$ ) kuchlanganlik deformatsiya holatining barcha bosqichlarida buzilishgacha sinaldi. Yuklama oralig‘i, kutilayotgan buzuvchi yuklamaning 0,05 ulushiga teng miqdorda oshirib borildi. Darzlar hosil bo‘lgandan keyin esa 0,1 ulushicha yuklama orttirib borildi. Yuklama berilgan har bir bosqichdan keyin ustundagi sirpanish deformatsiyasini aniqlash maqsadida 30 minutdan kutib turildi. Sinovlar davrida beton va armaturaning nisbiy deformatsiyalari, darzlarning ochilish eni hamda cho‘ziluvchi zonadagi solqiliklar o‘lchab borildi. Ustunning balandligi bo‘ylab deformatsiyalar 50 mmli bazada soat ko‘rinishidagi indikatorlar bilan o‘lchandi. Darzlarning ochilish eni esa 24 barobar kattalashtirib ko‘rsatuvchi mikroskop yordamida o‘lchandi.

Temir beton ustunlar bilan bir xil tarkibdan tomonlari 100×100×100mm bo‘lgan kub namunalari tayyorlandi. Ushbu namunalar ustunga qo‘llanilgan B20 klassdagi beton va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetondan iborat bo‘lib, ular 28, 60, 90, 180 va 360 sutkalik muddatlarda B20 klassdagi beton va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonlardan tayyorlangan namunalardan iborat edi. Yuqorida ko‘rsatilgan har bir muddat uchun 10 tadan B20 klassdagi og‘ir beton hamda 10 tadan bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobeton tayyorlandi. Tayyorlangan barcha namunalar bir xil sharoitlarda saqlandi. Kub namunalarni sinashda PM-250 markadagi gidravlik pressdan foydalanib, Uz.RST 10180-18 talablariga mos keluvchi uslubda sinaldi. Har bir muddat uchun 20 tadan namuna sinaldi.

Dissertatsiyaning **“Bazalt tolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonning mustahkamligi va deformatsiyalanuvchanligi”** deb nomlangan uchinchi bobida B20 klassdagi og‘ir beton hamda bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning mustahkamligi va deformatsiyalanuvchanlik xossalari aniqlandi.

**1-jadval. B20 klassdagi og‘ir betondan va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betonlarning kubikaviy mustahkamligining vaqt davomida o‘zgarishi.**

№	Dispers armaturalanish holati	Bazalt tola qo‘shilgan betonning kubikaviy mustahkamligi (MPa), sutkalarda					Bazalt tola qo‘shilgan betonning turli vaqtlardagi ish sharoiti koeffitsiyenti					Tavsiya qilingan qiymat
		28	60	90	180	360	28	60	90	180	360	
1.	B20 klassdagi og‘ir betondan	20.9 100	21.5 103	22.3 107	22.9 110	23.6 113	1,35	1,39	1,41	1,44	1,44	1,4
2.	Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan	28.2 135	29 139	29.4 141	29.6 142	30 144						



**2-rasm. B20 klassdagi og‘ir betondan va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betonlarning kubikaviy mustahkamligining vaqt davomida o‘zgarishi**


Ularning vaqt davomida mustahkamligi va deformatsiya modulining o‘zgarishini aniqlash uchun 28, 60, 90, 180 va 360 sutkalardagi kubikaviy va prizmatik mustahkamligi, kub namunalarni sinash orqali aniqlandi.

Sinov natijalaridan ko‘rinib turibdiki, 360 sutka davomida bir xil sharoitda saqlangan B20 klassdagi og‘ir beton va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan

fibrobetonning mustahkamligi aniqlanib, o‘zaro solishtirilganda fibrobetonning kubikaviy va prizmatik mustahkamliklari 40%ga ortganligi aniqlandi. Og‘ir beton bilan bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning mustahkamligini o‘zaro farqlari 360 sutkada ham 28 sutkadagi mustahkamliklari farqlaridan deyarli o‘zgarmadi. Ta’kidlash joizki, tayyorlanganiga bir yil muddat o‘tgandan keyin ham fibrobeton og‘ir betonga qaraganda mustahkamligi yuqoriligi saqlanib qoladi.

**2-jadval. B20 klassdagi og‘ir beton hamda bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan beton namunalarning prizmatik mustahkamligini vaqt davomida o‘zgarishi**


№	Dispersarmatura lanish holati	Bazalt tola qo‘shilgan betonning prizmatik mustahkamligi (MPa) sutkalarda					Bazalt tola qo‘shilgan betonning turli vaqtlardagi ish sharoiti koeffitsiyenti.					Tavsiya qilingan qiymat
		28	60	90	180	360	28	60	90	180	360	
1.	B20 klassdagi og‘ir betondan	$\frac{17.2}{100}$	$\frac{17.98}{105}$	$\frac{18.67}{109}$	$\frac{19.01}{111}$	$\frac{19.35}{113}$	1,35	1,3	1,4	1,4	1,4	1,4
2.	Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betondan	$\frac{23.35}{135}$	$\frac{23.7}{137}$	$\frac{24.22}{140}$	$\frac{24.39}{141}$	$\frac{24.74}{143}$						



**3-rasm. B20 klassdagi og‘ir beton hamda bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan beton namunalarning prizmatik mustahkamligini vaqt davomida o‘zgarishi.**

**3-jadval. B20 klassdagi og‘ir beton hamda bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan beton namunalarning deformatsiya modulini vaqt davomida o‘zgarishi  $E_b \cdot 10^{-3}$ (MPa)**

№	Dispers armaturalanish holati	B20 klassdagi og‘ir beton va bazalt tolalar bilan dispers armaturalangan betonning deformatsiya moduli (sutkalarda)					Turli muddatlarda bazalt tola qo‘shilgan beton deformatsiya modulining ish sharoiti koeffitsiyenti (sutkalarda)					Tavsiya qilingan qiymat $\beta_b$
		28	60	90	180	360	28	60	90	180	360	
1	B20 klassdagi og‘ir betondan	$\frac{12.4}{100}$	$\frac{12.65}{102}$	$\frac{12.89}{104}$	$\frac{13.27}{107}$	$\frac{13.52}{109}$	1,25	1,25	1,27	1,27	1,3	1,3
2	Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betondan	$\frac{15.5}{125}$	$\frac{15.74}{127}$	$\frac{15.99}{129}$	$\frac{16.24}{131}$	$\frac{16.49}{133}$						



**4-rasm. B20 klassdagi og'ir beton hamda bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobeton namunalarning deformatsiya modullarini vaqt davomida o'zgarishi.**

Eksperimental tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning deformatsiya moduli B20 klassdagi og'ir betonning deformatsiya modulidan 25-30% ko'proqdir. Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning deformatsiya modulini quyidagi formula bilan aniqlash tavsiya qilinadi:

$$E_b = 3130 \cdot \rho \cdot \sqrt[3]{R} \cdot \beta_B \quad (1)$$

bu yerda:  $\rho$  - betonning o'rtacha zichligi,  $t/m^3$ ;  $R$  - betonning kubikaviy mustahkamligi, MPa;  $\beta_B$  - bazalt tola qo'shilgan betonning deformatsiya modulini ortishini hisobga oluvchi koeffitsient.

Ushbu koeffitsientning qiymati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\beta_B = \frac{E_{bf}}{E_b} \quad (2)$$

bu yerda:  $E_{bf}$  - bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan namunalarning deformatsiya moduli;  $E_b$  - bazalt tola qo'shilmagan beton namunalarning deformatsiya moduli.

**4-jadval. Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betonning mustahkamligi va deformatsiyalarining vaqt davomida o'zgarishi**

Dispers armaturalanganlik holati	Betonni saqlangan muddati	Hajmiy og'irligi $kgs/m^3$	$R$ , MPa	$R_v$ , MPa	$K_{vs}$	$E_v$ MPa	$\epsilon_{vs} \cdot 10^{-5}$
Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobeton	28	2410	28,2	23,35	0,82	13000	190
	60	2405	29	23,7	0,82	13800	194
	90	2390	29,4	24,22	0,83	15300	197
	180	2390	29,6	24,39	0,83	15800	208
	360	2390	30,0	24,74	0,84	16100	215
B20 klassdagi og'ir beton	28	2340	20,9	16,3	0,72	12400	205
	60	2320	21,5	17,1	0,79	12500	205
	90	2300	22,3	17,7	0,79	12500	241
	180	2280	22,9	18,0	0,81	13200	237
	360	2280	23,6	18,4	0,77	14000	259

Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy deformatsiyalaridan biroz boshqacharoq xulosalar chiqarish mumkin. Fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligi uning qotish sharoitiga bog'liq. Tajriba natijasida olingan 2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan

fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligi B20 klassdagi og‘ir beton namunalarnikiga qaraganda 11% ko‘proqdir.

**5-jadval. Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligini vaqt davomida o‘zgarishi**

t/r	Betoning turi	B20 klassdagi og‘ir beton va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligining vaqt davomida o‘zgarishi				
		28	60	90	180	360
1	Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobeton	196	202	209	227	236
2	B20 klassdagi ogir beton	202	210	219	237	249

Jadvaldagi qiymatlardan ko‘rinib turibdiki, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligi uning saqlangan muddatiga ham bog‘liq. Uning o‘shishi bilan chegaraviy siqiluvchanlik ortib boradi. Ushbu tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra, chegaraviy siqiluvchanlik bilan bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan betonning boshlang‘ich deformatsiya moduli orasida bog‘liqlik mavjudligini aniqlash mumkin. Chegaraviy siqiluvchanlik to‘g‘risidagi sinov natijalarini tahlil qilinganda, chegaraviy deformatsiyalar yig‘indisi shartli ravishda elastik va noelastik tashkil etuvchilarga bo‘linadi.

Bundan tashqari, bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligi uning saqlangan muddatiga ham bog‘liq. Uning o‘shishi bilan chegaraviy siqiluvchanlik ortib boradi. Ushbu tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra, chegaraviy siqiluvchanlik bilan bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrobetonning boshlang‘ich deformatsiya moduli orasida bog‘liqlik mavjudligini aniqlash mumkin. Chegaraviy siqiluvchanlik to‘g‘risidagi sinov natijalarini tahlil qilinganda, chegaraviy deformatsiyalar yig‘indisi shartli ravishda elastik va noelastik tashkil etuvchilarga bo‘linadi.

Tajribalarning ko‘rsatishicha, bazalt tolalar bilan dispers armaturalangan fibrobetonning chegaraviy siqiluvchanligini amaldagi qiymati bazalt tola qo‘shilmagan betonnikiga nisbatan katta bo‘lib, ushbu qiymat uning mustahkamligi hamda yuklama qo‘yilgan vaqtiga bog‘liqdir. Bazalt tolalar bilan dispers armaturalangan betonning chegaraviy siqiluvchanligining o‘zgarishi 2-jadvalda keltirilgan. Chegaraviy siqiluvchanlikning o‘rtacha qiymatlarini o‘zgarishi betonning yuk qo‘yilgan vaqtdagi yoshi va qotish sharoiti bilan birgalikda ko‘rish lozimligini ifodalaydi. Ular orasidagi bog‘liqlikni quyidagi ifoda yordamida aniqlash mumkin:

$$\varepsilon_b \cdot 10^{-3} = 36,1 \cdot \sqrt[3]{R^2} \quad (3)$$

bu yerda:  $R$  – yuklama qo‘yilgan vaqtdagi betonning mustahkamligi; MPa.



Ushbu ifoda chegaraviy siqiluvchanlik bilan uning mustahkamligi orasidagi bog‘lanish borligini tasdiqlaydi. O‘tkazilgan nazariy hisoblar ularning tajribaviy qiymatga yaqin ekanligini ko‘rsatdi. Bunda tajribaviy qiymat bilan nazariy hisoblarning nisbati 1,05 ekanligini ko‘rsatganligi uchun (3) formulani amalda qo‘llash mumkin ekanligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **Bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan temir beton ustunlarning deformatsiyalanuvchanligi, darzbardoshligi va mustahkamligi** deb

nomlangan to'rtinchi bobida uch xil ekstsentrissetlar ( $e_0=0,2h_0$ ,  $e_0=0,5h_0$  va  $e_0=0,8h_0$ ) bilan buzilishgacha sinalgan B20 klassdagi og'ir betondan tayyorlangan temir beton ustunlar va bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan fibrotemirbeton ustunlarning eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan.

Darzlar hosil bo'lgunga qadar, cho'ziluvchi armatura va betonning siqiluvchi zonasidagi armaturalarning deformatsiyalari deyarli bir xil bo'ladi. Yuklamaning qiymatini orttirib borilgan sari, ayniqsa darzlar hosil bo'lgandan keyin cho'ziluvchi armatura va siqiluvchi betondagi deformatsiyalar ortib boradi. Ustunlarga  $e_0=0,2h_0$  ekstsentrisset bilan  $0,5 \cdot N_u$  intensivlikdagi yuklama qo'yilganda, cho'ziluvchi armaturalarning deformatsiyalari: dispers armaturalanmagan ustunlarda  $21,9 \cdot 10^{-5}$  (5-rasm), bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan ustunlarda esa  $15,1 \cdot 10^{-5}$  ni tashkil qilib, ularning qiymati 30-35% ga farq qiladi, ya'ni ustunlarni dispers armaturalash ularning deformatsiyalanishini kamaytiradi. Ustunning chetki siqiluvchi tolasidagi deformatsiyalar dispers armaturalanmagan ustunlarda  $126 \cdot 10^{-5}$ , dispers armaturalangan ustunlarda esa  $190 \cdot 10^{-5}$  ni tashkil qilib, ular orasidagi farq o'rtacha 40-45% ni tashkil qiladi, ya'ni bunda ham dispers armaturalangan ustunlarning deformatsiyalanuvchanligi kamayadi.

Ustunlarga  $e_0=0,5h_0$  ekstsentrisset bilan  $0,5 \cdot N_u$  intensivlikdagi yuklama berilganda, cho'ziluvchi armaturalarning deformatsiyalari: dispers armaturalanmagan ustunlarda  $26,7 \cdot 10^{-5}$  (6 rasm), bazalt tolalari bilan dispers armaturalangan ustunlarda esa  $19,4 \cdot 10^{-5}$  ni tashkil qilib, ularning qiymati 33-39% ga farq qiladi, ya'ni ustunlarni dispers armaturalash ularning deformatsiyalanishini kamaytiradi. Ustunlarning chetki siqiluvchi tolasidagi deformatsiyalar dispers armaturalanmagan ustunlarda  $224 \cdot 10^{-5}$ , dispers armaturalangan ustunlarda esa  $154 \cdot 10^{-5}$  ni tashkil qilib, ular orasidagi farq o'rtacha 30-40% ni tashkil qiladi, ushbu holda ham dispers armaturalangan ustunlarning deformatsiyalanuvchanligi kamayadi.



